


Akademik litseyda "El-yurt umidi" jamg'armasi mas'ul xodimlari ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi

SamDCHTI akademik litseyida "Yoshlar soati" doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 05.05.2025-yildagi PF 77-sonli "Iqtidorli yoshlar va mutaxassislarni xorijdagi nufuzli ta'lim, ilmiy va boshqa tashkilotlarda ta'lim olishini tashkil etish hamda davlat xizmatchilarini xorijiy mamlakatlarda o'qitish va stajirovkasini tashkil etish orqali ularning kasbiy ko'nikmalari, bilimi va tajribasini yanada oshirish"ga doir qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan "El-yurt umidi" jamg'armasi mas'ul xodimlari ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi.

Tadbirda akademik litsey o'quvchilariga "El-yurt umidi" jamg'armasining faoliyati, undagi yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida kerakli tushinchalar berildi. Suhbat davomida o'quvchilarning qiziqishlari o'rganildi. Tadbir so'ngida o'quvchilar soha vakillaridan o'zlarini qiziqitirgan barcha savollarga kerakli javoblarni olishdi.











SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati